

**YANGI O'ZBEKISTONNING MA'NAVIY YUKSALISH JARAYONLARI VA UNI
RIVOJLANTIRUVCHI OMILLARNI O'RGANISH ZARURATI.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15081581>

Raximov Alisher Sharofidinovich

*Farg'ona davlat universiteti
harbiy ta'lif fakulteti boshlig'i o'rinnbosari-umumqshin
tayyorgarlik sikli boshlig'i*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jahonda global muommolar kuchayib borishi sharoitida yoshlarda yuksak insoniylikka asoslangan chinakam vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning ob'yektiv shart-sharoitlari to'g'risida ilmiy tadqiqotlarni yanada oydinlashtirib olish masalalari dolzarblik kasb etmoqda. Jumladan, rivojlangan mamlakatlarda fuqarolarning vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha davlat dasturi, yoshlarning vatanparvarlik borasidagi tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi va davlat tomonidan moliyaviy ko'mak beriluvchi ko'plab jamoatchilik asosidagi faxriylar tashkilotlari, turli uyushmalari tuzilgan va faoliyat olib bormoqda.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, ma'naviyat, ma'naviy, ta'lif-tarbiya, yer, oila, ota-onha, bolalar, qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar, xalq, vijdon, mustaqil, davlat, sadoqat, inson, hurmat, ishonch, xotira, his-tuyg'u, axloqiy, qadriyat, urf-odat, faylasuf, taraqqiyot.

Аннотация: В данной статье в условиях нарастания глобальных проблем в мире все более актуальным становится вопрос дальнейшего уточнения научными исследованиями объективных условий формирования у молодежи подлинных патриотических чувств, основанных на высокой гуманности. В частности, в развитых странах существуют государственные программы патриотического воспитания граждан, многочисленные общественные организации ветеранов, различные объединения, которые занимаются патриотическим воспитанием молодежи и получают финансовую поддержку государства.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, духовность, мораль, образование, земля, семья, родители, дети, родственники, соседи, народ, совесть, независимый, государство, верность, человек, уважение, доверие, память, чувства, мораль, ценности, традиции, философ, развитие.

Abstract: In this article, in the context of the intensification of global problems in the world, the issues of further clarifying scientific research on the objective conditions for the formation of truly patriotic feelings based on high humanity in young people are becoming more relevant. In particular, in developed countries, there is a state program for the patriotic education of citizens, many public veterans' organizations, various associations that are engaged in the patriotic education of young people and are financially supported by the state, have been created and are operating.

Keywords: New Uzbekistan, spirituality, spiritual, education, land, family, parents, children, relatives, neighbors, people, conscience, independent, state, loyalty, man, respect, trust, memory, feelings, morals, values, traditions, philosopher, development.

Yangi O'zbekistonda ma'naviy yuksalishni ta'minlash, yosh avlodni madaniyatli va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat va sadoqat ruhida tarbiyalash milliy taraqqiyotning muhim talabi, ta'lif-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh vazifasidir.

Ma'naviy yuksalish tushunchasining mazmun-mohiyati, konseptual asoslarini yoritishda ma'naviyatga bog'liq tushunchalar mazmunni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

"Ma'naviyat" tushunchasini tavsiflashga doir xilma-xil talqinlar mavjud bo'lib, "Ma'naviyat: asosiy tushunchalar" izohli lug'atida: "Ma'naviyat (arab. ma'no, ma'nolar majmuasi) – moddiy hayot bilan doimo yonma-yon yuradigan, inson, xalq va jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lgan ijtimoiy hodisa"⁹ tarzida umumlashgan ta'rif berilgan.

Ilk islam islohotchilar ta'liloticha, Kalom bir talay qismlarga bo'lingan: borliqdan avvalgi hayot - qummun, atomlar haqidagisi javhar al-fard, sababiy bog'lanish to'g'risidagi ta'lilot - tavallud, mohiyat to'g'risidagi ilm - ma'na hisoblangan. Shunday qilib, narsahodisalar, jarayon, tabiat va jamiyat, hatto Ollohnning mohiyati "ma'na"da o'z ifodasini topgan. Ikkinci tomondan, ma'naviyat ham, uning o'zagi "ma'na" ham qadimgi hind falsafasida keng qo'llanilgan "manas" tushunchasi bilan bog'langan bo'lishi mumkin. Bunday taqdirda u do'stlar va ulfatlar joyi ma'nosini bildiradi. Tilshunoslikka oid lug'atlarda ham "ma'naviyat" - axloqiylik, kishining ichki va ruhiy olami, bilan bog'liq ma'nolarni anglatishi aytildi¹⁰.

Ma'naviyat muammosi juda ham murakkab va serqirrali bo'lganligi sababli unga berilgan ta'riflar ham rang-barangdir. Bunda quyidagicha manzaraga duch kelamiz: ma'naviyat deganda - shaxsiy ong; kishilarning ruhiy faoliyati; axloq, nafosat va nazariy qadriyatlar yig'indisi, haqiqat va himmat hamda go'zallikning qiyomi; insonning histuyg'ulari; insonning jamiki axloqiy qadriyatları yig'indisi kabilar tushuniladi. Keltirilgan fikrlarni umumlashtiradigan bo'lsak, ma'naviyat bepoyon, cheksiz borliqning inson ruhida aks etishidir. Demak, ma'naviyat ko'p qirrali qadriyatdir. "Yer, oila, ota-onas, bolalar, qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar, xalq, vijdon, mustaqil davlatimizga sadoqat, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, erkinlik - ma'naviyatning ana shunday ma'nosini keng... Inson o'zini xalqning bir zarrasi deb sezgandagina, u haqda o'ylab, mehnat qilib yashagandagina ma'naviyat bilan tutashadi". Demak, ma'naviyat deganda insonni inson, millatni millat qilib turgan axloqiy fazilatlarning majmuasi nazarda tutiladi.

Psixolog olima G.S.Abramova yoshlarning ma'naviy o'z-o'zini anglashi bilan bog'liq muammolarni batafsil o'rganib, mazkur jarayonni faol kechishi haqida yaqqol guvohlik beruvchi jihatlarni aniqlab bergen. Avvalam-bor, bu ma'naviy hamdardlik, ya'ni boshqa

⁹Маънавият: асосий тушунчалар изоҳи лугати. – Т.: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбода ижодий уйи, 2010. – Б.333.

¹⁰ Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.-Toshkent.: O'qituvchi,1992. -B. 33-38

insonlar bilan umumiylikni his qilish va ulardan mustaqil bo'lish, boshqalarga (kamdarkam hollarda befarq bo'lishi mumkin), o'ziga, do'stlikka (o'spirin yaqin sirdosh izlaydi), muhabbatga (insonga in'om qilingan) nisbatan intilishning kuchliligi va olam bilan munosabatga kirishish bilan bog'liqdir¹¹.

Faylasuf olim T.Mahmudov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham asosiy urg'u shaxs ma'naviyati, uni shakllantirish jarayonida aks etuvchi holatlar xususidagi qarashlar o'z ifodasini topgan. T.Mahmudov "Ma'naviyat" tushunchasini quyidagicha talqin etadi: "Ma'naviyat shaxs va millatning "aqli va qalbi"ni ifoda etadigan tarix taqozasiga binoan uning turli tomonlari namoyon bo'ladigan, tabiat va insonning insoniylashuv darajasini bildiradigan ruhiy idrok, ziyrak qalb olamidir"¹².

Professor B. Ziyomuhamedov esa ma'naviyatga quyidagicha ta'rif beradi: "Ma'naviyat – bu kishining egallagan foydali bilimlari amaliy hayotida sinalaverib, ko'nikma va malaka darajasidan o'tgan va ruhiga singib, hayot tarzida aks etadigan ijodiy sifatlar majmuidir"¹³.

Tilab Maxmudov "ma'naviyat — ... ong va qalbda makon topib, yorug' dunyoda ruhiy qadriyat tarzida konkretlashib, moddiylashgan-insoniyashgan holdagina ko'zga tashlanadi. Inson muayyan jamiyat va millat ehtiyoji nimani ustuvor sanasa, ma'naviyat olamida ana shu narsalar ko'proq ahamiyat kasb etadi. Ma'naviyatning tarixiyligi ham shunda. U bepoyon qalb ahlining mahsuli sifatida o'zining azaliy va abadiy xususiyatlariga ega" , - deydi¹⁴.

Faylasuf olim E.Yusupov ma'naviyatning asosini tashkil qiluvchi tarkibiy qismlarini axloq-odob, bilim, ilm, amaliy malakalar, iste'dod, qobiliyat, iymon, e'tiqod, vijdon, insof, ixlos, dunyoqarash va mafkuraviy omillardan iborat ekanligini ajratib ko'rsatadi va ma'naviyat tushunchasini inson axloqi va odobi, bilimlari, istedodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, e'tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarining uzviy bog'langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadigan mushtarak tizim sifatida tariflaydi.

A.Erkayev esa ma'naviyat tushunchasining atama sifatida shakllanishida ilohiyot fani - Qur'oni Karim talqiniga bag'ishlangan ilm, keyinchalik tasavvuf ta'limoti kuchli ta'sir ko'rsatganini, "Ma'naviyat" so'zi rus tilidagi "duxviost" so'zining muqobili ekanligi, har ikki so'zning ma'nosi bir xil bo'lib, ikkisi ham Xudoga borib bog'lanishini ta'kidlab, ma'naviyatga quyidagi ta'rifni beradi: "Ma'naviyat ijtimoiy ongning nisbatan umumiy (umummilliyl) ahamiyat kasb etgan, e'tiqod va qadriyatlar darajasiga ko'tarilgan sobit ehtiroslari, tushunchalari, meyorlari, ijtimoiy mo'ljallari, amallaridir; ularning badiiy, ilmiy, falsafiy, diniy merosda, urf-odatlarda obyektivlashgan tizimi hamda millatni muayyan maqsadlarga erishish uchun yo'naltiradigan milliy iroda, milliy g'urur va or- nomusdir. U

¹¹ Абрамова Г.С. Психология только для студентов: Учебное пособие для вузов. – Москва.: ПЕР СЭ, 2001. – С.168

¹²Maxmudov T. Avestohaqida.Toshkent.: Sharq, 2000: -B. 117.

¹³Zunnunov A. Pedagogika tarixi. -Toshkent.: O'qituvchi, 2004. -B. 8.

¹⁴Maxmudov T. Avestohaqida. -Toshkent.: Sharq, 2000: -B. 14

jamiyatda qaror topgan va insonning asl mavjudligini ta'minlaydigan aqliy va hissiy, ruhiy va mafkuraviy muhitidir”¹⁵.

Boshqa bir olim E.Umarov fikricha, ma'naviyatning tarkibiy qismlarini axloqiy-ruhiy fazilatlar, fikrlar va hatti-harakatlarning g'oyaviy-hissiy ulug'vorligi, go'zallik tushunchasi va go'zallik tuyg'usi, bolalar, keksalar, bemorlar. Muhtojlarga rahm-shafqat, hamdardlik ko'rsatish, ularga ijtimoiy g'amxo'rlik ko'rsatish; aql, bilim, fan, ijod, haqiqatga intilish; ekologik dunyoqarash, tabiatga oqilona munosabatda bo'lismaslik kabilalar.

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida xalqimizdan berkitilgan o'zini boy tarixiga ega bo'lgan milliy ma'naviyatimizni tiklash, uni xalqimizning kelajagini o'ylab, yurtimizning ravnaqi yo'lida rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ulkan ishlar, shuningdek, bu borada oldimizda turgan vazifalar belgilab olindi. Jamiyat hayotining barcha jabhalarida tub o'zgarishlar amalga oshirilayotgan, bozor munosabatlari ustuvor bo'lib borayotgan hozirgi sharoitda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish taraqqiyotimizning asosiy tamoyillaridan biri bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy siyosat xalq to'g'risida - har bir ijtimoiy guruh, qatlam, tabaqa, har bir fuqaro, yoshu keksa, erkagu ayol barcha yurtdoshlarimiz to'g'risida g'amxo'rlik qilish, islohotlarni, iqtisodiy tadbirlarni xalk, manfaatlariyai ko'zlagan holda o'tkazish, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, madanmyat, ilm-fan sohalariga e'tiborni susaytmaslik tushuniladi.

Yangi O'zbekiston – mamlakatimiz mustaqilligini yanada mustahkamlash, erkinlik va ozodlikning yangi davri, bunyodkorlik va farovonlik yo'lining yuqori bosqichidir¹⁶. Unda amalga oshirilayotgan rivojlantirish bo'yicha ustuvor yo'naliishlardan biri «Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat» qilib belgilangan. Globallashuv sharoitida jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda fuqarolarning daxldorlik hissini oshirish, har bir shaxsda «jaholatga qarshi – ma'rifat» bilan javob bera olish madaniyatini shakllantirish omillarini takomillashtirishda ma'naviyatning g'oyaviy asoslarini o'rganish va tahlil etish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Shu nuqtai nazardan, shaxs ma'naviyatini yuksaltirishda milliy g'oya va o'zlikni anglashning o'zaro aloqadorligini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etish, hamda ilmiy-nazariy ahamiyatga ega bo'lgan xulosalarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Bugungi kunda bizning mamlakatimizga tadbigan olganda «ma'naviy yuksalish» tushunchasi shakllanishi va namoyon bo'lishi, u bilan bog'liq jarayonlarning umumiy qonuniyatları va milliy xususiyatlarını anglash, bu boradagi ijtimoiy-falsafiy asoslarning ahamiyatini idrok qilish zarur vazifalardan biriga aylangani shubhasiz.

Fikrimizcha, ijtimoiy-falsafiy ma'noda «yuksalish» g'oyasi muayyan xalq yoki davlat tomonidan o'ztaraqqiyotining bir davridan ikkinchi davriga o'tish yoki jamiyatdagi umrini o'tab bo'lgan tushuncha va tamoyillar, amaliy faoliyat mezonlari, ba'zi tartib-qoidalar

¹⁵ Erkayev A. Milliy g'oya va ma'naviyat. -Toshkent.: Ma'naviyat, 2002.-B.49.

¹⁶ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Ташкент: “О'zbekiston”нашриёти, 2021.-Б.26.

hamda eskirgan ijtimoiy munosabatlarning tayanch paradigmalarini zamonaviy talablar asosida isloh etish varivojlanishning yangi bosqichiga erishish jarayonini ifodalaydi. Ayni paytda, ushbu sohada ham umumiylar qonuniyatlar, asosiy paradigmalar va ustuvor tamoyillar shakllangan. Shu bilan birga, mazkur tushuncha uchun asos bo'lgan g'oyalarni amalga oshirishning mamlakatimizga xos xususiyatlari borligini ham alohida e'tirof etish lozim. Bu jihatdan, Prezidentimizning quyidagi fikri mamlakatimizda milliy tiklanish va yuksalish yo'lida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar va faoliyaning asosiy mazmun-mohiyatini ifodalaydi: «Biz bu yo'lida islohotlarimizning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan jamiyatimiz a'zolarining bor bilim va salohiyati, kuch va imkoniyatlarini, butun azmu shijoatimizni ishga solishimiz zarur. Shundagina Yangi O'zbekiston jahon maydonida kuchli salohiyat, munosib obro'-e'tiborga ega bo'lgan, har tomonlama obod va farovon mamlakatga aylanadi»¹⁷. Ayni shu nuqtai nazardan, bu boradagi keng ko'lamli vazifalarning bajarilishi mamlakatimiz barqaror taraqqiyoti va yuksalishining muhim sharti, yurtimizda bir osmon ostida yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlar, dinlar va konfessiyalarga mansub kishilar, jamiyatimizda mavjud bo'lgan davlat va jamoat tashkilotlari, bir siyosiy maydonda harakat qilayotgan partiyalar vakillari o'rtasidagi o'zaro hurmatni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi, albatta.

Har qanday hodisani o'rganish, u vujudga kelgan shart-sharoitlarni, tarixiy rivojlanish jarayonida uning mazmunida yuz bergen barcha o'zgarishlar va boshqa shu kabilarni tadqiq etishini taqozo qiladi. Biroq, «milliy yuksalish» tushunchalarini o'rganish maqsadi e'tiborni an'analar muammosining turli jihatlariga, xususan, ularning vujudga kelishi va rivojlanish tarixini o'rganish kabilarga jalb etish imkonini bermaydi.

Milliy taraqqiyot va ma'naviy yuksalish jarayonining ijtimoiy-falsafiy negizlarini, tarixiy rivojlanish bosqichlarini ko'zdan kechiradigan bo'lsak, Sharq va G'arb falsafiy tafakkuri rivojidida o'ziga xos o'rinni tutib, asta-sekinlik bilan bugungi zamonaviy ko'rinishigacha bo'lgan murakkab bosqichni bosib o'tganligini kuzatishimiz mumkin. Ayniqsa, mazkur muammo R.Dekart, B.Spinoza, I.Kant, I.Fixte, G.Gegel kabi Yevropa faylasuflarining asarlarida alohida mavzu sifatida o'rganila boshlanganligini ko'rishimiz mumkin¹⁸. Ular, avvalambor, o'z yurti, millati sha'n-u sharafini yuksaklikka ko'tarish, taraqqiyotga olib chiqish uchun ilg'or g'oyalarni o'rtaga tashlagan, davr taqozo etgan mafkuraning shakllanishiga hissa qo'shgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалиқ қоидаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. –Б.104.

¹⁷ Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б. 5.

¹⁸ Норалиев Р.И. Миллий тараққиёт ва маънавий юксалишнинг ўзароалоқдорлик хусусиятлари. Фалсафафандар номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилгандиссертация автореферати. Тошкент, 2011. – Б. 10.

2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргалиқда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016.- Б.9.
3. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ташкил этилганининг 25 йиллиги муносабати билан Ватан ҳимоячиларига йўлланган байрам табригидан // Халқ сўзи. 2017 йил 15 январ.
4. Абдурасулов О.А. Ҳарбий хизматчилар ўртасида ватанпарварлик тарбиясини амалга ошириш йўллари ва унинг назарий асослари // Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларининг тарихи, бугуни ва келажаги. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Тошкент: ЎзРМВ, 2005. – Б. 96-98.
5. Абдурасулов О.А., Назаров А.С. Ёшлар маънавияти шаклланишида ҳарбий ватанпарварлик тарбиясининг роли // Миллий истиқлол ғояси ва армия. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. - Тошкент: 2004.
6. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик / Асқар Маҳкам таржимаси. – Тошкент: F.Фулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2016. - 732 б.
7. Жўраев Т. Миллий давлатчилик: хавфсизлик ва барқарорлик. – Тошкент: Akademiya, 2007.
8. Жўраев Т., Пахрутдинов Ш. Дунёвий давлатчилик ва сиёсийлашган динийлик: азалий мухолифат. –Тошкент, 2008. - 129 б.
9. Ибн Арабшоҳ. Темур тарихида тақдир ажойиботлари. 2-китоб. -Тошкент: Меҳнат, 1992. - 65 б.